


Dnk-shtrix-kodlash texnologiyasi asosida O'zbekiston florasining noyob o'simlik turlari barkodi yaratildi

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti Molekulyar filogeniya va biogeografiya laboratoriyasi ilmiy xodimlari tomonidan DNK-shtrix-kodlash texnologiyasidan foydalangan holda O'zbekistonning noyob va yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan 4 turkumga mansub 31 o'simlik turlari 60 ta namunada barkodlandi.



Tadqiqotning asosiy maqsadi DNK shtrix-kodlarining ma'lumotnomalarini yaratish va tadqiqot obyektlarini aniqlash uchun praymerlarning kombinatsiyasini ishlab chiqishdan iboratdir.

Tadqiqot obyektlari o'z ichiga O'zbekiston Respublikasi florasida uchraydigan Amaryllidaceae J. St.-Hil. (Nargisdoshlar), Chenopodiaceae Burnett (sho'radoshlar), Lamiaceae Martinov (Yalpizdoshlar), Liliaceae Juss. (Loladoshlar), Iridaceae Juss. (Gulsafsardoshlar) oilalarning noyob, yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan va endemik turlarni olgan.



Dracocephalum L.

2 tur, 4 namuna

Tulipa L.

19 tur, 38 namuna


Salvia L.

6 tur, 10 namuna

Iris L.

4 tur, 8 namuna

Tadqiqotlar DNK ajratish, polimerlarni xalqali reaksiyasi, sekvinerlash, bioinformatika dasturlari yordamida ma'lumotlarni tahlil qilish va ma'lumotlarni Global System BOLD v4-dasturiga yuklash (www.boldsystems.org) bosqichlarida amalga oshirildi.



Noyob va yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan turlarning DNK shtrix-kodi tabiatda noqonuniy brakonerlikka qarshi kurashda foydalanish uchun, shuningdek, bojxona tizimi faoliyatida muhofaza etiladigan o'simlik materiallari noqonuniy eksportini oldini olishga xizmat qiladi.